

Shavkat Mirziyoyev Valentina Matviyenkoni qabul qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-oktyabr kuni mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenkoni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari yuqori martabali mehmonni samimiy qutlar ekan, Valentina Matviyenkoni Rossiya Federatsiyasi parlamentining yuqori palatasi raisi lavozimiga qayta saylangani bilan tabrikladi hamda ushbu mas'uliyatli faoliyatida muvaffaqiyat tiladi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari bugun yuksak darajaga ko'tarilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Muntazamlik kasb etgan oliy darajadagi samarali muloqotlar, Rossiya Prezidentining o'tgan yil oktyabr oyida O'zbekistonga davlat tashrifi mamlakatlarimizning keng ko'lamlil hamkorligini kengaytirishga kuchli sur'at bag'ishlab, uni aniq mazmun bilan boyitdi.

Valentina Matviyenko, o'z navbatida, samimiy qabul uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirdi hamda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Rossiya parlamenti delegatsiyasining ushbu tashrifi mamlakatlarimiz ko'p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlashga qat'iy intilayotganining navbatdagi tasdig'i ekani ta'kidlandi.

Uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlar, shuningdek, oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda hamda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, innovatsion, transport-logistika, agrosanoat, ilmiy-texnik sohalarda istiqbolli loyihalarni ilgari surishda, ta'lim va madaniy-gumanitar almashinuvlarni kengaytirishda ikki mamlakat parlamentlarining faol ishtirokiga oid dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

Xalqaro parlamentlararo tashkilotlar doirasida hamkorlikni mustahkamlash muhimligi alohida qayd etildi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Federatsiya Kengashi Raisi ko'p qirrali O'zbekiston – Rossiya munosabatlarini har tomonlama mustahkamlash maqsadida parlamentlararo aloqalarni izchil rivojlantirish borasidagi intilishi qat'iy ekanini ta'kidladi.

Valentina Matviyenko joriy yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy vakillik hokimiyati organlariga saylovlar muvaffaqiyatli o'tishini tiladi.

[O'ZA](#)